

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 11 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич</i> “ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА	12-17
<i>Эгамбергенов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли</i> ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)	18-25
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> ҚО’ҚОН ХОНЛАРИ СУЛОЛАСИНИНГ ГЕНЕОЛОГИК ТАҲЛИЛИ	26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i> О’ЗБЕКИСТОНДА XX-АСРНИНГ 20-40-ЙИЛЛАРИДА СANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI	32-38
<i>Asadova Ra’no Baymanovna</i> О’ЗБЕК- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO’TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI	39-42
<i>Saidova Raxima</i> О’ЗБЕКИСТОН ВА ИТАЛИЯ MUNOSABATLARINING ME’YORIY-HUQUQIY MANBALARI	43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra’no Muzaffarbek qizi</i> AFROSIYOB ARXEOLIGIK YODGORLIGINING O’RGANILISH TARIXI	49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i> TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	56-60
<i>Mirsoatova Sayyora Turg’unovna</i> QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIIY DAVR IQTISODIIY HAYOTINING AKS ETISHI	61-66
<i>Лухмонов Шахзод Сайфиддин ўғли</i> ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР	67-71
<i>Axmedov Bekzod</i> SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O’ZBEKISTONDA QORAKO’LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI.....	72-75
<i>Mamatov Jasurbek Qodirqul o’g’li</i> NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIIY HAYOTIDAGI O’RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)	76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo’latovich</i> SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIIY YO’NALISHLARI	81-88

Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич

ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИИЙ
РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ 89-93

Akrorov Botir Bakhodirovich

ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА
В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ 94-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich

IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI
RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMI TAKOMILLASHTIRISH 100-108

Muxitdinova Kamola Alisherovna

«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN
MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI 109-115

Madraximov Qaxramon Egamberganovich

INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA
ERISHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA..... 116-125

Кетманов Авазбек Маликович

КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ
ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 126-134

Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich

KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI..... 135-142

Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli

MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING
OF GOODS AND SERVICES 143-152

Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi

MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI
TASNIFI 153-160

Sharipov Komil

MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI 161-170

Rajabov Navruzbek Azimjonovich

MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI 171-179

Mirzaeva Shirin Nodirovna

SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN
UZBEKISTAN..... 180-187

Pardayev Rasulbek Islomovich

TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING
TAHLILI 188-196

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH
XUSUSIYATLARI 197-202

Рахимов Бахромжон Ибрахимович

ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ 203-209

Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATI (NAMANGAN
VILOYATI TAHLILIDA)..... 210-216

Hasanov Ilkhom Isakovich

IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE
AGRICULTURE OF UZBEKISTAN..... 217-221

Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna

CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING
XUSUSIYATLARI 222-227

Maxmudov Jasurbek Ergashevich

INNOVATION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLİYAVIY
JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI 228-233

Ravshanov Nodirjon Begalievich

TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI
OSHIRISHNING AHAMIYATI 234-243

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich

SHIHOIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOY-SIYOSIY
VAZIYATLARNING TA'SIRI 244-248

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich

XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI
VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI..... 249-254

Saburov Jaloliddin

XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY
HAYOT RIVOJI 255-260

Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich

NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA
MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 261-265

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich

FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY 266-271

Adilov Zafar Yunusovich

MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH
MEVALAR MASALASI 272-277

Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich

ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND
PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE
YOUNG GENERATION 278-282

Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich

TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI 283-287

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ 288-295

Daliyeva Madina

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES 296-300

Paluanova Khalifa

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES 301-306

Равшанов Махмуд

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО 307-311

Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS 312-318

Normamatov Farrux Komiljon o'g'li

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI 319-322

Gulamova Dilobar Imamkulovna

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI 323-326

Xolmuxamedov Baxtiyor

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI 327-334

Chorieva Iroda Kurbonboevna

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI 335-339

Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI 340-345

Расулова Камола

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ 346-353

Омонов Турғунбой

“СУҒУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ 354-358

Хакбердиева Сайёра Фармоновна

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ 359-364

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 365-370

Gubaydullin Artur Faridovich

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" 371-376

Abdullaeva Sevara Makhsudaliyevna

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES 377-381

Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi

SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK

TAHLILI 382-385

Yuldasheva Nigora Baxodirovna

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI 386-390

Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI 391-396

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Рузметов Хайрулла

ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ
КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ 397-402

Ачилова Лилия Илхомовна

ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ
МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА 403-410

Abdubannayev Umidjon

AXBOROTGA BO'LGAN INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING
RIVOJLANISH BOSQICHLARI 411-421

Халиқулов Комолиддин Носирович

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА
ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ 422-427

Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли

ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА
ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 428-433

Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли

ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ
МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ 434-439

Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich

IJTIMOIIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA
QARSHI KURASHISH BO'YICHA HORIIY TAJRIBA 440-446

Алиев Асилбек Кадирович

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ
АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ 447-451

Нодирахон Абдурахманова

РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ
АСПЕКТЫ 452-462

Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич

РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ 463-469

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Xusanova Mohira

OLIY O'QUV YURTLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI
TAKOMILLASHTIRISH 470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i> ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i> TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i> MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i> TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i> SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i> MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODEL 535-539	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODEL 540-545	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i> THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i> TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i> ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI	565-568

Received: 31 October 2024
Accepted: 5 November 2024
Published: 15 November 2024

Article / Original Paper

ANALYSIS OF POETIC IMAGES IN ABDUVALI QUTBIDDIN'S POETRY

Kuljanova Tolganoy Shodiyar kizi

SAMSU, 1st year undergraduate doctoral student
tulganoyquljanova@gmail.com

Abstract. In this article, the poetry of Abduvali Qutbiddin is analyzed. Some comments on the issue of symbolism, figurativeness and truth in the poet's poetry are given. The role of the poet's creativity in the emergence of a new spirit and image in contemporary poetry and the interpretation of enlightened-mystical ideas in harmony with classical traditions are highlighted.

Key words: figurativeness, symbolism, body and soul, imagination, sect, obid, gado, enlightenment, mysticism.

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI

Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi

SAMDU 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abduvali Qutbiddin she'riyati poetik tahlilga tortilgan. Shoir she'riyatidagi ramziylik, majoziylik va haqiqat masalasiga doir ayrim mulohazalar berilgan. Hozirgi zamon she'riyatida yangicha ruh va tasvirning paydo bo'lishida shoir ijodining o'rni hamda mumtoz an'analarga hamohang ma'rifiy- tasavvufiy g'oyalar talqini yoritilgan.

Kalit so'zlar: majoziylik, ramziylik, vujud va ruh, tasavvur, tariqat, obid, gado, ma'rifat, tasavvuf.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N59>

Ijodkor ahlining ilhomi dardli hissiyotlar poydevoriga bunyod bo'ladi va chin ma'nodagi ijod, hissiyotni o'z qalbi bilan his qila olgan ijodkorlarga xos jarayondir. Albatta bu jarayon dunyo va ikki qutb orasida yashovchi insoniyatning azali, abadi va buguni haqidagi mushohadalar hamda hayot tajribasining in'ikosidir. Har qanday ijodkor o'z tafakkur chegaralarigacha bo'lgan maydonda ot sura oladi. Hissiyotni o'z qalbi bilan his qilgan ijodkorgina ideal tasvirlash mahoratiga ega bo'ladi. Adabiyot yaralibdiki, inson qalbini taftish qildi, botiniy olam sirlarini so'z bilan fosh qildi va so'ngida ruhiy tarbiya vositasiga aylandi. Barcha davrlarda majoziylik va ramziylik she'riyatning ohorli libosi bo'lib qoldi. Mumtoz adabiyotimizda chin ma'rifat kuylandi, ulug'landi va dunyoviy timsollar orqali ochib berildi. Hozirgi zamon she'riyatida esa bugungi dunyo va insoniyatga xos sifatlar mumtozona ruh va an'anviylikdan ozuqa olgan yangicha tasvirlash uslubi vositasida tavsiflanmoqda. Xususan, bu ijodiy jarayonni shoir Abduvali Qutbiddin she'riyati tahlilida ko'rishimiz mumkin.

Abduvali Qutbiddin adabiyotga o'tgan asrning 80-yillarida o'zgacha uslub va o'zgacha ohang bilan kirib keldi. Shoir she'riyati o'ziga xos tasvirlash uslubi va falsafiy mushohadaga boyligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlarida yashayotgan ruh bir qaraganda bu dunyoga xos

emasday tuyuladi, kitobxonni yangi manzillarga eltib tashlaydi. Ammo she'riyatni tasavvur va tafakkur bilan his qila olgan kitobxon bu ruhiyatning manzilini olis o'tmish maskanlari bilan bog'lay oladi. Bu ruh ne-ne ijod ahlini tasavvur ummoniga g'arq qildi. Va bu ummon bag'ridan nola-yu so'z bo'lib, nido bo'lib yangradi. Kun kelib shoir Abduvali Qutbiddin ijodida yangicha shakl, yangicha talqin kasb etdi. Hozirgi o'zbek she'riyatiga xos modern xususiyatlarni ham o'zida jamladi. Ramziy-modernistik tasvirlash uslubi orqali xos she'riyat yaratdi.

Hozirgi zamon she'riyatida ramziylik va majoziylik ikki jihatdan e'tiborli. Birinchisi, modern oqim orqali kirib kelgan bo'lsa, ikkinchisi hayotiy va ijtimoiy zarurat natijasida paydo bo'ladi. Shoir qarashlarida bu ikki jihat ham ahamiyatlidir. Ayniqsa 80-yillarda yozilgan she'rlaridagi ramziy-majoziy tasvirlar ijtimoiy zarurat yuzasidan paydo bo'ldi. Boshqa ijodkorlar qatori ozodlik, tarixga munosabat va vatan g'oyasi shoir ijodida yetakchi maqomga ko'tarildi. Uning "Qaysi kun- giyohlar temir bo'larlar", "Suvora", "Firdavsiyga tatabbu'", "Laqma Eshqul afsonasi", "Pianino.1942-yil", "Shahar", "Ertaklardan biri", "Frans Kafka", "Chumoli va janob" kabi she'rlarida davr chirkinliklari va millat fojiasi ramziy tasvirlar orqali yoritilgan. Ushbu she'rlar mustaqillikdan oldin yozilgan bo'lsa-da, istiqlol nafasi ufurib turadi. Shoir yaqin kunlarda kelajak hurriyatni ich-ichidan his qiladi, qalbida yuksak ilhom tuyadi va keyinchalik "O'zbeklar", "Ozodlik", "Da'vat" kabi she'rlarida erkni baralla kuylaydi. Zamondosh avlodlarni vatanparvarlikka undaydi, targ'ib qiladi. U "Suvora" she'rida Vatan uchun jangga otlangan xalqni shunday tasvirlaydi:

*Dubulg'asiz yalang'och nafratlar kelar dodlab,
Yarador armonlari
Dalalarni to'ldirib oqib ketadi titrab,
Issiqqina qonlari [1;7]*

Ushbu misralarni o'qigan she'rxon ko'z o'ngida dushmanga qarshi jangga otlangan xalq iztiroblari haqqoniy bo'yoqlarda chiziladi, "yalang'och nafrat" va "yarador armon" birikmalari xalqning ruhiy holatini yaqqol tasvirlab beradi. Keyingi misralarda shoir xalqni birlashishga chorlaydi va bu holatni dushmanga qarshi kokilini arqon qilgan ayollar, hassasini uloqtirgan keksalar, tillari bilan la'nat o'qigan kampirlar orqali ochib beradi. Albatta g'alaba birlik tomonda! Hattoki tabiat ham yaxshilikni qo'llaydi. Shoir buni go'zal tashbeh vositasida tasvirlaydi.

*Beg'ubor tinchlik qo'nar qilichlar dastasiga
Rangsizgina kapalak
Tanib qolar janggohlar, dushmanlar kallasiga
Urug' qo'yar chim pechak. [1;8]*

Abduvali Qutbiddin ijodida modernistik ruhning mumtozona, tasavvufiy qarashlari aks etgan. Shoir she'riyatiga oshno kitobxon undagi ruhni his qiladi. Bu ruh shunday yo'lga otlanganki, o'zgalardan boshqacha, lekin an'analarga sodiq. Bir o'qishda anglab ulgurish qiyin bo'lgan va she'rxonni xoslarga xos mushohada qilishga undaydigan she'riyat. Va bu she'riyatning mag'zida xalqimizga xos qadriyatlar mujassam. Ayniqsa, imon masalasi inson ma'naviy olamini belgilovchi asosiy jihat bo'lib, adabiyotda bosh mavzuga aylangan komil inson g'oyasi zamiridagi muhim fazilat sifatida e'tirof etiladi. Ijod ahli borki, imon mavzusida o'z qarashlarini doim bildirib kelgan. Albatta bu qarashlar Qur'oni karim va Hadisi shariflarga tayanilgan. Hazrat Alisher Navoiy ham imon va uning shartlari haqida atroflicha fikrlar

bildirgan. Bir o'rinda bu haqda to'xtalib: *"Kimki jahon sahnida inson erur, / Bilki nishoni anga imon erur"*, -deya iymonni insoniylikning birinchi sharti sifatida e'tirof etadi.

Abduvali Qutbiddin she'riyatini zohiriy va botiniy ramziylik asosida tahlil qilish mumkin. Uning "Imon" she'ri 1987-yilda yozilgan bo'lib, bu davrda dinsizlik va qaramlik, shaxsga sig'inish siyosati hali ham hukmron edi. Ma'lumki, yuz yildan ortiq hukm surgan qaramlik va jaholat davri xalqimiz qalbidan dini islomni yo'q qilish uchun kurashdi. Shavqatsiz siyosiy choralar ko'rildi. Xalq esa o'z qadriyatlariga sodiq qoldi. Qalban his qilib, iymon bilan yashadi. To'g'ri, bu tazyiqlar iymonning sustlashishiga ham olib keldi. Lekin asliyatiga putur yetmadi. Shoirning ushbu she'rida tush motivi orqali iymon, bu dunyo va uning o'tkinchiligi, iymonning sustligi, inson qalbiga emas, zohiriga qarab baholanadigan bugungi hayot falsafasi teran aks ettiriladi. She'rda shoir, bukri kimsa, ko'r obid, tilsiz hudhud, chumoli, nurligard tobut obrazlari o'rtasidagi muloqot orqali voqelik tasvirlanadi. She'r ramziylik asosiga qurilgan bo'lib yuqoridagi obrazlarning har biri shoirning davr va e'tiqod masalasidagi qarashlarini ifodalashga xizmat qilgan. Ijodkor o'sha davr muhitini *"Tush ko'rdim, zulmat o'rmonin qa'ri, / Boyo'g'li qizlari terurlar chanoq"* [1;62] jumlasini orqali ramziy tasvirlaydi. Keyingi misralarda lirik qahramon ortga – ota- bobolariga nazar tashlaydi. Ajdodlarining qanday inson bo'lganligini mushohada qiladi: *"Yoridim, xirqapo'sh onlar o'tdilar, / Dimog'im kuydirdi bo'yki nastarin"* [1;62] misralari yordamida xirqapo'sh kiyib tariqat safariga otlangan, ilmi laduniy- nastarin hidiga burkangan mujohid ota-bobolarini esga oladi. *"Soyamni talashib ruhlar o'tdilar, / Shilib bir-birlarin shaffof aftlarin"* [1;62] deya islom olamini manfaatlantirgan ajdodlarning avlodi ekanligiga ishora qiladi. Shoir e'tiqodini "ko'r obid" obrazida tasvirlaydi. Bunda shoirning tasavvufiy qarashlari namoyon bo'ladi. Ya'ni bu yerda ko'rlik ko'zi ojizlik ma'nosida emas, inson botiniga aloqador- qalb ko'zining yopiqligidir. Valiylar nazdida qalb ko'zi haqiqat oynasi bo'lib, unga yetishish uchun yo'lga otlangan solik ne-ne sinovlarda toblanadi, kuyib kul bo'ladi. Komil iymonga shu zahmatlar natijasida erishiladi. Demak qalb ko'zining ochilishi e'tiqodni yuqori darajaga ko'tarib beradi. Obid laduniy ilmlardan bahramand bo'ladi bu darajaga erishishning yo'li Yaratgandan yaxshilik so'rab iltijo qilishdir. Shoir shu jihatga ishora qiladi.

*Ro'baro bo'ldim men vaqti inoyat
Sufra yozib cho'kka tushgan ko'r obid
Pichirlar; og'zida nuri hidoyat:
– ko'zim och bo'loyin dargohingda it! [1;63]*

Keyingi misralarda qalb ko'zi ochilgan obidning hayratlariga ishora qilinadi. *"Ko'r dodlab yubordi kipriklarida / Javharlar tizilib charaqladilar"* [1;63] va shu payt qoya ichidan ilohiy ishq otashiga burkangan Hudhud chiqib kelib tilsiz og'zini ochdi. Haq nurining zarralariga hatto qoyalar dosh berolmaydi. She'rda Hudhud ramziy obraz bo'lib haqiqatda Haqqa yetishgan valiy siymosida gavdalanadi. Valiy Haq ishqida jazba holatiga keldiki, boshqa hamma narsani unutdi. Bu so'fiylarning eng oliy orzusidir. Diniy kitoblarda keltirilishicha, Hudhud Sulaymon payg'ambarning xabarchi qushi bo'lib, u jannatga kiruvchi hayvonlardan biridir. Hudhudning tilsizligi ham ramziy ma'noda. Chunki har bir solikning yo'li o'ziga xos sirlidir. Haqiqatga pir – murshid yordamida faqat o'zigina yetishi mumkin.

*Ko'rding sen so'qirni- u e'tiqoddir,
Ko'rding hudhudni sen- u orzu tilsiz.
Chumoli zil zahmat yoshdan bunyoddir.*

Nurligard tobutdir jonning nishoni. [1;64]

Bu yerda chumoli iymon safaridagi obidning mashaqqatlari ma'nosida. Tobutdagi nurli gard– jon ramzi. Tasavvufda jon umumiy tushuncha bo'lib, vujud xilma xil bo'lishi mumkin, ammo mohiyat bitta. Tobut dunyoning o'tkinchiligiga ishora bo'lib, inson yasharkan iymon uning borlig'iga aylanishi lozim. Shoir "*O'zingni o'zingga etaman hadya, Bil, hayvon– odamning orasi bahya*" [1;64] deya iymonni insoniylikning muhim sifati hisoblaydi. U zohiriy emas, botiniy Abduvali bo'lishni orzu qiladi va o'zi anglagan haqiqatlarning asliyatini istaydi

Qachondir chimdim nur

Obkelgum qachon?!

Qachondir chimdim so'z

Obkelgum qachon?! [1;64] deya ishqqa tashna ruhining isyonini kitobxonga anglatishga harakat qiladi va lekin bu bir "hol"ki ifodalashga so'zlar ojiz qoladi.

Shoir "Qalandar" she'rida voqelikni shunday tasvirlaydiki, she'rni o'qigan kitobxon ko'z o'ngida shovqin-suronli olomon va insonlarga o'zi anglab ulgurgan haqiqatlarni so'zlayotgan qalandar timsoli gavdalanadi.

Izdihom chog'ida

Maydonga gurs-gurs,

Sallasi osilgan, belida kajko'l,

papog'iga qand-qurs solgan qalandar

tashrif buyurar-Xaloyiq!

Imon musofir

Inson darbadar.

Shoir bu she'rida ham iymon haqida so'z yuritib, uni musofirga o'xshatadi. Ya'ni bu dunyoda ruh va iymon musofirdir va kun kelib o'z vataniga –u dunyoga qaytuvchidir. Vujud esa darbadarlikka mahkum. Dunyo va uning o'tkinchiligi "*Xaloyiq! To'rt fasl xabar, Vatanga safar*" jumalari orqali ramziy tasvirlangan. Bu yerda Vatan– oxirat diyori; to'rt fasl–umrning o'tkinchiligiga ishoradir.

Abduvali Qutbiddin she'riyatida obrazli tasvir shu qadar kuchliki, uning she'rlarini o'qigan kitobxon eshitishdan to'xtaydi, butun tasavvuri ko'zga aylanib ko'rishni boshlaydi, yengillikni his qiladi, musiqiylik va xayolot cheksizday tuyuladi. Tasvirlash uslubi va so'z qo'llash mahorati takrorlanmas darajada o'ziga xoski, oddiy kitobxon she'rning tagma'nolarini o'ylashni istamaydi. Boricha qabul qiladi va zavqlanadi. Adabiyotning xos kishilari esa har bir jumlasiga hayrat bilan qaraydi. Xayolot va tasavvur olamining qarshisida so'zning ojiz qolishi mumkinligini his qiladi. Shoir Aziz Said: "*Abduvali Qutbiddin zamindan yuqori yozuvchi shoir edi. Har bir she'rida faryod bor va bu faryodni moddiyatdan uzoqda– ruhiyat bilan tinglash lozim*", – deya eslaganda naqadar haq edi. Uning "Avtoportret", "Hibs etilganman...", "Yog' yomg'ir", "Sirli bandargohda quyuq tuman" kabi she'rlarida ruh va vujud olamining ramziy tasvirlarini ilg'ash mumkin. Shoir vujudni tan olmaydi, u faqat isyonchi ruhining izmida. Yosh kelinchak bisotidagi bor narsalar bilan o'ziga oro bergani kabi shoir ham ruhni eng ohorli so'zlar vositasida tasvirlaydi. Quyidagi she'rida ruhni– olmos langar, qalbni– billur kema deya ta'riflaydi. Zarbof to'n kiygan darg'a– kema boshqaruvchisi esa vujud ramzi. Tasavvur shu qadar tug'yonliki, u erkin vazndan boshqasiga sig'maydi. Shoir ruhning makonini quyuq tumanli sirli bandargoh deb ta'riflaydi. Haqiqatda ruh ilmi faqat Allohga xos bo'lib, bandasi ojizdir. Bu haqida Qur'oni karim va Hadisi shariflarda keltirilgan. Shoir ramziy va tashbehli so'zlar yordamida go'zal

manzara chizib beradi. Shunday manzaraki, o'quvchini intim hissiyotlar va tasavvur olamiga yetaklaydi.

*Sirli bandargohda quyuq tuman,
Olmos langar,
Billur kema.
Zarbof ko'ylak kiygan darg'a mendirman
Ey gul, ketasanmi men bilan. [1;6]*

Yana bir she'rida shoir ruh va vujud olami haqida fikr qiladi. Ruh vujud nomli qafasga qamalganki, u yerdan chiqishni istaydi. Paylar ruhning kishani, uni zanjirband qilgan. Shoir dunyo hayotini qullik tunlari deb hisoblaydi va ruhini ozod bo'lishini kutadi.

*Hibs etilganman o'zimga o'zim,
zanjiru kishanim rishtam paylarim.
Qullik tunlarida o'zimni o'zim
Ozodlik kutganday poyladim.*

Shoir nazarida bir qarashda yangicha ko'rinish beruvchi bu ko'hna dunyo arzimasdir. Dunyo uchun chekilgan iztiroblar qadrsiz. Shoir quyidagi she'rida bu dunyoda qo'nim topolmay, iztirobga tushgan ruhni ovutishni istaydi. Uning fikricha, chin baxtni bu dunyoda topib bo'lmaydi. Baxt yili oxirat diyoridadir

*Laylatulqadrlar yerga qo'ngaydir,
Har qarich tuproqda anqo ungaydir,
Har lahza ko'rinib shamol yangraydir
Baxt yili keladir,
Baxtli yil.
Tangri bor bo'lsa gar jamolin ochar
Quyosh abadiyat suvlarin sochar
Fano tugunlangan sehrini ochar
Baxt yili keladir,
Baxtli yil. [2;4]*

She'rdan laylatulqadr, anqo, fano singari tasavvufiy timsollar shoir qarashlarini yaqqol ochib bergan. Tasavvufiy g'oyalar aks etgan. Shoir o'zini ahli hollardan deb biladi. Tasavvuf kitoblarida aytilishicha, hol solikning tasavvur-tahayyulda ilohiy jamolni mushohada qilishi, zavq-u shavqqa to'lishi holati. Adabiyotda ruhiyati tirik ijodkorlar ham ahli hol deyiladi. Shoir bu yerda ikkinchi ma'noni nazarda tutgan bo'lishi haqiqatga yaqinroq. Chunki sanduvoch-bulbul she'riyat ramzidir.

*Mendek ahli hollar to'planib yig'lar,
Sanduvoch bag'rida, o'rtanib yig'lar,
O'rtada o'limlar tebranib yig'lar,
Baxt yili keladir,
Baxtli yil. [2;4]*

Shoir yana bir she'rida dunyo haqidagi tasavvurlarini so'zga ko'chiradi. Inson abadiy oromni bu dunyoda topolmasligiga ishora qiladi.

*Qishdan o'tib olsak..
Lolalar yurtiga qarab ketarmiz,
Qishdan o'tib olsak... Dunyodan*

Gul-u rayhon bo'lib o'tarmiz.

deya oxirat diyorini– jannatni vasf qiladi. Dunyo hayotini sinov va mashaqqatlarga to'la qish fasliga ramzlaydi.

Abduvali Qutbiddin she'riyatining o'ziga xos jihatlari ko'p. Shoir o'tmishni qadrlaydi. Undan ilhom oladi. Firdavsiy, Afrosiyob, Bahrom va Dilorom, Hotamtoy, Daqqiyunus, Rumi, Xalloy, shayx Shibliy, Naqshbandiy va Hofizlarga murojaati orqali qalbida isyon otgan qarashlarni she'rga soladi. Uning "Osima", "Tasavvur lahzalari", "Barokko", "Onchaki", "Nazmdagi nasr", "Erkin aruz", "Illyustratsiya" kabi turkum she'rlari zamonaviy she'riyatdagi o'ziga xos postmodern yo'nalishning paydo bo'lganligini isbotlaydi. Ayniqsa, adabiyotda qahramon darajasiga ko'tarilgan Osima siymosi kitobxonni o'ylashga majbur qiladi. Shoir bu haqida qisqacha to'xtalib: *"Osima turkumi to'satdan paydo bo'lib qolgan. 19-20 yoshlarimdagi tug'yonli hissiyotlarim ifodasi"*, deb aytgandi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, biz bu maqolada shoir Abduvali Qutbiddinning poetik mahoratiga oid ayrim mulohazalarnigina bildira oldik. Albatta bu fikrlar o'z qarashlarimiz ifodasi va buni to'g'ri hukm deyishdan ham yiroqmiz. Lekin shunisi aniqki, shoir she'riyati orqali zamonaviy o'zbek adabiyotiga yangicha ruh, tasavvur falsafasining takrorlanmas tasvirlari kirib keldi. Bu she'riyat shunday she'riyatki, uning mo'jizalarini faqatgina ko'ngil ko'zi bilan his qilish mumkin. Bu she'riyat adabiyotimizda yangicha talqin, yangicha yo'nalishning paydo bo'lishiga zamin hozirladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Abduvali Qutbiddin. Bor.-Toshkent.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2011.-320 b.
2. Abduvali Qutbiddin. Baxtli yil: She'rlar. –Toshkent.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 136 b.
3. Alisher Navoiy. Hayrat ul -abror.// To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Oltinchi jild. Toshkent, 2011.
4. Бадий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари.–Тошкент, 2010, 198–б.
5. Najmiddin Komilov. Tasavvuf.-Toshkent.: "Movaraunnahr", 2019.-447-b.
6. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur.-Toshkent.: "Hilol-Nashr", 2021.- 296 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 11 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).